



BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN HIMOYA QILISH TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNING ASOSIY PRINSIPLARI, HUQUQLARI VA YO'NALISHLARI.

Nazarov Ilhom Alimovich

O'zbekiston Respublikasi IIB Malaka oshirish instituti katta o'qtuvchisi,
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17734993>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 23-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 27-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

Jismoniy zo'rvonlik, jinsiy zo'rvonlik, ruhiy zo'rvonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo'rvonlikning shakllaridir. Bolalarga nisbatan zo'rvonlikning barcha shakllari taqiqlanadi hamda qonun bilan ta'qib qilinadi.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi 2024 yil 14 noyabr, O'RQ-996-sonli qonuni qabul qilingan unga muvofiq. Bolaning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy daxlsizligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo'lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo'rvonlik deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi 2024 yil 14 noyabr, O'RQ-996-sonli qonuni qabul qilingan unga muvofiq. Bolaning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy daxlsizligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo'lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo'rvonlik deb e'tirof etiladi.

Jismoniy zo'rvonlik, jinsiy zo'rvonlik, ruhiy zo'rvonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo'rvonlikning shakllaridir. Bolalarga nisbatan zo'rvonlikning barcha shakllari taqiqlanadi hamda qonun bilan ta'qib qilinadi.

Bolalarga og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog'lig'i uchun xavfli holatda bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatmaslik hamda zo'rvonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish yoxud bolalarning hayoti, sog'lig'i yoki erkinligiga tajovuz qiladigan jismoniy ta'sir o'tkazish bolalarga nisbatan jismoniy zo'rvonlik deb e'tirof etiladi.

Bolaga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni sodir etish orqali uning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, shu jumladan nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish, jinsiy aloqa qilishga majburlash, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlar ijrochisi sifatida jalb etish, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali yoxud bolaning ojizligidan foydalanib shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish, shahvoniy shilqimlik qilish, shuningdek qonunda taqiqlangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan har qanday boshqa harakatlar bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik deb e'tirof etiladi.

Bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo'ravonlik shakli, shu jumladan zo'ravonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakatlar (harakatsizlik) bolalarga nisbatan ruhiy zo'ravonlik deb e'tirof etiladi.

Boladan iqtisodiy, jinsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan odam savdosi, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga va tilanchilik qilishga jalb etish, jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatishni qo'llagan holda bolani majburlash orqali boladan nikohga kirish yoki er-xotin bo'lib yashash, muayyan diniy ta'lim olish, har qanday shakldagi mehnatga majburlash uchun foydalanish bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga, shu jumladan ta'lim olishiga tahdid tug'dirsa, bolalarni ekspluatatsiya qilish deb e'tirof etiladi.

Bir guruh bolalar yoki bitta bola tomonidan boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanish, u (ular) bilan har qanday muloqotni cheklab qo'yish (boykot qilish), uning (ularning) mol-mulkini olib qo'yish va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazish, uning (ularning) o'ziga xos jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlarini ommaviy muhokama qilish, uning (ularning) sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish yoxud uning (ularning) sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazish, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, muttasil ruhiy va (yoki) jismoniy tajovuzkor ta'sir ko'rsatish ta'qib etish (bulling) deb e'tirof etiladi.

Bolaning to'laqonli rivojlanishi, uning jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishi, xavfsizlik, ta'lim olish, katta yoshdagilarning g'amxo'rliqi, ijtimoiy aloqalar o'rnatish, hayotiy ko'nikmalari rivojlanishi va o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratilishini qamrab oladigan hayotiy muhim ehtiyojlar majmui bolaning asosiy ehtiyojlari deb e'tirof etiladi.

Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning asosiy prinsiplari

Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- insonparvarlik;
- bolaning eng ustun manfaatlarini ta'minlash;
- bolalarning huquqlari va imkoniyatlari tengligini ta'minlash;

- bolalarning tahqirlanishiga yo'l qo'ymaslik;
- bolaning o'z manfaatlariga taalluqli qarorlar qabul qilinishida ishtirok etishi;
- bolalarga nisbatan zo'ravonlikka bo'lgan murosasizlik;
- bolalarga nisbatan zo'ravonlik uchun javobgarlikning muqarrarligi; zo'ravonlikdan jabrlanuvchining huquqlarini tiklash.

Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari:

✚ Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

✚ bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

✚ jamiyatda bolalarga nisbatan zo'ravonlikka bo'lgan murosasizlik muhitini yaratish;

✚ zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning hamda o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;

✚ bolalarning hayoti va sog'lig'ini, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

✚ jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash;

✚ bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish;

✚ bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishiga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

✚ bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish yuzasidan ota-onalarning mas'uliyati va majburiyatini oshirish hamda zo'ravonlik oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ota-onalar faolligini ta'minlash;

✚ bolalarga nisbatan zo'ravonlikni profilaktika qilish va ularni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish maqsadida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorligini ta'minlash;

✚ bolalarga nisbatan zo'ravonlik to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish, ularni tahlil qilish va ulardan foydalanish hisoblanadi.

Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar tarkibi.

✚ Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

✚ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

✚ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani);

✚ Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya;

✚ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi;

✚ prokuratura organlari;

✚ ichki ishlar organlari;

✚ O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari;

✚ O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi;

✚ O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;

✚ ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va ta'lim muassasalari, nodavlat ta'lim tashkilotlari;

✚ davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari;

✚ mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari;

✚ fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari.

Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari va tashkilotlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlarning hamkorligi

Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi tadbirlarni o'tkazishda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha hamkorlik qiladi:

➤ axborotning maxfiyligi talablariga rioya etgan holda o'zaro xabardor qilish, shuningdek bolalarga nisbatan aniqlangan zo'rvonlik faktlari yoki o'ziga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalar to'g'risida vakolatli davlat organini xabardor qilish;

➤ bolalarga nisbatan zo'rvonlik hollarini va ularning oqibatlarini kompleks baholash hamda zo'rvonlikdan jabrlanuvchilarga tegishli yordam ko'rsatish;

➤ bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish, uni bartaraf etish hamda unga qarshi kurashish sohasidagi chora-tadbirlarni birgalikda amalga oshirish va tajriba almashish;

➤ bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish, uni bartaraf etish hamda unga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo qo'shma qarorlar qabul qilish;

➤ bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish, uni bartaraf etish hamda unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni amalga oshiradigan mutaxassislarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

➤ bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha yakka tartibdagi chora-tadbirlar turlari

✚ Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha yakka tartibdagi chora-tadbirlar turlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

✚ himoya orderini berish;

✚ zo'rvonlikdan jabrlangan bolalarga va o'ziga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalarga huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam ko'rsatish;

✚ zo'rvonlikdan jabrlangan bolalarning hamda o'ziga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalarning oilalarini mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash;

✚ zo'rvonlikdan jabrlangan bolani va o'ziga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolani ota-onasidan (ularning biridan) yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita tahdid mavjud bo'lganda olib qo'yish;

✚ zo'ravonlikdan jabrlangan yoki zo'ravonlikka guvoh bo'lgan bolalarni «jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan hollarda, jinoyat ishini yuritish chog'ida himoya qilish choralarini qo'llash;

✚ bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturlaridan o'tish;

✚ sog'liqqa, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar sodir etgan shaxslarning huquqlarini cheklash.

Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha yakka tartibdagi chora-tadbirlarni qo'llash uchun asoslar

Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha yakka tartibdagi chora-tadbirlarni qo'llash uchun quyidagilar asos bo'ladi:

✚ zo'ravonlikdan jabrlanuvchining yoki uning qonuniy vakilining murojaati;

✚ jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari;

✚ bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish faktlarining davlat organlari va tashkilotlar xodimlari tomonidan bevosita aniqlanganligi;

✚ ommaviy axborot vositalaridagi, Internet butunjahon axborot tarmog'idagi, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi e'lonlar;

✚ davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan kelib tushgan materiallar.

Zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni, shuningdek o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalarni aniqlash

Vakolatli davlat organi zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni, shuningdek o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalarni aniqlashda bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa subyektlar bilan birgalikda ishtirok etadi. Vakolatli davlat organi ichki ishlar organlari bilan birgalikda bunday bolalarning hisobini yuritadi hamda zarur hollarda bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha yakka tartibdagi chora-tadbirlarning qo'llanilishini ta'minlaydi.

Bolalarning quyidagi toifalari o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalar deb hisoblanadi:

➤ yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;

➤ o'z hayotiga yoki sog'lig'iga tahdid soladigan yoxud bolalarni ta'minlash, tarbiyalash, ularga ta'lim berish va bolalarni parvarishlash talablariga javob bermaydigan sharoitlarda bo'lgan bolalar;

➤ ota-onasi yashash joyi bo'yicha vaqtincha bo'lmagan davrda yoki ularning o'z otanalik majburiyatlarini vaqtincha bajara olmasligi davrida o'ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilanmagan bolalar;

➤ nazoratsiz va qarovsiz qolgan bolalar;

➤ ijtimoiy xavfli vaziyatda qolgan bolalar;

➤ nogironligi bo'lgan bolalar, shu jumladan ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar;

➤ otasi yoki onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) ruhiy holati buzilganligi va (yoki) narkologik kasalliklar tufayli dispanser hisobiga olingan bolalar;

➤ bolani yolg'iz tarbiyalayotgan otaga yoki onaga (ularning o'rnini bosuvchi shaxsga) nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan yoki ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo chorasi qo'llanilgan bolalar;

➤ otasi yoki onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxs) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 99, 103, 103¹, 110, 118-122¹, 125¹, 126, 126¹, 127, 127¹, 128, 128¹, 129, 130, 130¹, 131, 135, 148¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni yoki O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 188, 188³ yoki 190-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan (jinoyatga suiqasd qilgan) bolalar;

➤ g'ayriijtimoiy xulq-atvorli bolalar;

➤ fohishalik bilan shug'ullanadigan bolalar.

Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar, jismoniy va yuridik shaxslar hamda sudlar zo'rvonlikdan jabrlangan bolalar yoki o'ziga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalar to'g'risidagi faktlar aniqlangan taqdirda bu haqda vakolatli organlarga hamda ichki ishlar organlariga darhol xabar berishi shart.

Ichki ishlar organlari bolalarga nisbatan zo'rvonlik to'g'risida og'zaki yoki yozma xabar olganda mazkur harakatlarga chek qo'yish va ularning oldini olish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rishi, shuningdek bu haqda vakolatli davlat organiga xabar berishi shart.

Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining va tashkilotlarning bolalarga nisbatan zo'rvonlik hollarini aniqlash, ular haqida xabardor qilish va bolalarga nisbatan zo'rvonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ta'sir choralari qo'llash yuzasidan idoralararo hamkorligi tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita tahdid soluvchi omillarni bartaraf etish

Bolaga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi natijasida uning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita tahdid solinganda quyidagi choralar ko'riladi:

- zo'rvonlik sodir etgan shaxsni qonunda belgilangan tartibda va asoslarda ma'muriy yo'l bilan ushlab turish hamda protsessual majburlov choralari qo'llash;
- himoya orderini berish;

zo'rvonlikdan jabrlangan bolani yoki o'ziga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolani ota-onasidan (ularning biridan) yoki uni o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan olib qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotla:

1. Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi konvensiya 1979. <http://taraqqiyot.uz/hotin-izlar-uulari-kamsitil>.
2. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya 1989. <http://taraqqiyot.uz/bola-uulari-trisidagi-kon>.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // URL: <http://www.lex.uz>

4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // URL: <http://www.lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni // URL: <http://www.lex.uz>
6. 2019 yil 2 sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'raonlikdan himoya qilish to'g'risida» Qonuni;
7. Astanov I. R. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar va ularni tergov qilishning o'ziga xos jihatlari: O'quv qo'llanma. –T., TDYuU, 2015. – B. 139.
8. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H. Rustamboev. – T.: TDYuI nashriyoti, 2008. – B. 163.

